

“TASDIQLAYMAN”

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, dotsent

B.Iraliev

2024-yil “09”

09

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mutaxassislik kafedralar qoshida
faoliyat yuritayotgan “Ustoz-shogirt” ilmiy to‘garaklar faoliyatini
muvofiqlashtirish to‘g‘risidagi
NIZOMI**

1-bob. UMUMIY QOIDALAR:

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash hamda talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, qo‘shimcha kasb egallashi, o‘z ustida ishlashi uchun Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti qoshida talaba-yoshlarning ehtiyojidan kelib chiqib, turli o‘quv kurslari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida (keyingi o‘rinlarda “Ustoz-shogirt” ilmiy to‘garaklar deb yuritiladi) hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ta‘lim olib, ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘illanayotgan talaba-yoshlarning ilmiy tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish, iqtidorli, iste‘dodli va tashabbuskor bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek eng ilg‘or va yuqori salohiyatga ega yoshlarning g‘oya va loyihalarini ro‘yobga chiqarish, tashabbuskor yoshlarni aniqlash, ularning loyihalarini amalyotga tadbiq etishga ko‘maklashishdan iborat.

2-bob. TO‘GARAK MAQSADI

2. To‘garakning asosiy maqsadi – talaba-yoshlarning qobiliyati, iste‘dodini rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma‘naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to‘liq safarbar etish hamda ularni har tomonlama hayotga tayyorlash, mamlakatimizda demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini xalq etadigan, global fikrlaydigan, kasbiy mahorati shakllangan oliy ma‘lumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun ijodkor iste‘dodli yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish, ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish va talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashdir.

3. To‘garak uzluksiz ta‘lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar asosida o‘z kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma‘naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o‘rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va

sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushma hisoblanadi.

4. To'garak talaba-yoshlarning optimal yechimlarni izlab topish ko'nikmalarini va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari bir xil bo'lgan bir guruh talabalarning ma'lum fan yoki kasb bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilar va kasb ta'lim ustalari tomonidan ularning bilim va mahoratini oshirish uchun xizmat qiladi.

5. To'garak bilim va ta'lim sohaları hamda mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli va tizimli asosda amalga oshirish uchun, talaba-yoshlar qiziqishiga, xohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qiladi.

6. O'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va mutaxassislik kafedralar yo'nalishi bo'yicha tashkil qilinadi.

3-bob. TO'GARAKNING VAZIFALARI

7. Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish, iqtidorli, iste'dodli va tashabbuskor bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek eng ilg'or va yuqori salohiyatga ega yoshlarning g'oya va loyihalarini ro'yobga chiqarish, tashabbuskor yoshlarni aniqlash, ularning loyihalarini amalyotga tadbiiq etishga ko'maklashishdan iborat.

8. Talaba-yoshlarni hayotda maqsad va ishonch bilan yashashga tayyorlash, ularni eng yuksak qadriyat sifatida vaqtini qadrlash va undan samarali foydalanishga o'rgatish.

9. Talaba-yoshlarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish;

10. Yoshlar ongi va qalbini loqaydlik, befarqlik kabi illatlardan forig' etish;

11. Talaba-yoshlarda barcha ko'rinishdagi salbiy holatlarga qarshi kurashuvchanlik ruhini yaratish va rivojlantirish;

12. Yoshlar orasida vatanparvarlik, milliy g'urur, ma'naviy teranlik va tashabbuskorlik ilmiy-ijodiy iste'dod kabi fazilatlarini qaror toptirish hamda to'plangan boy, badiiy-ijodiy va ilmiy-texnik salohiyatni yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish;

13. Yoshlarning ongi va ilmiy salohiyatini yuksaltirish asosida ularning demokratik jarayonlar kirishuviga ko'maklashish;

14. Talaba-yoshlarni mustaqil bilim topish jarayonida aqliy quvvatlari va vaqtlarini samarali sarflashga o'rgatish;

15. Mehnatsevar inson degan ijtimoiy sifatni shakllantirish;
16. Yoshlarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasini namoyish qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
17. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirib borishga ko'maklashish;
18. Yoshlarning ongi va malakaviy mahorat hamda ilmiy salohiyatini yuksaltirish;
19. Ijodkor yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish, ularni xalqaro talablar darajasiga ko'tarish;
20. Talabalarning bo'sh vaqtini maqsadli va mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab rivojlantirish;
21. Ilmiy-ijodiy izlanish olib borayotgan magistrant va talabalarga respublikadagi ijodiy jamoalar, ilmiy markazlar, fondlar hamda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga moddiy va ma'naviy yordamlashish;
22. Ilmiy va ijodiy izlanishlar natijalarini rag'batlantirish va keng ko'lamda targ'ib qilish maqsadida to'garak a'zolarining ijodiy ixtirolari bilan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, ko'rgazmalar va ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishiga ko'maklashish;
23. To'garak a'zolarining redaksiyalar, ijodiy uyushmalar, tashkilotlar, fanlar akademiyasining ilmiy-tekshirish institutlari va ilmiy ishlab chiqarish markazlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda izlanishlar olib borishlari uchun imkoniyat yaratish;
24. Magistrant va iqtidorli talabalarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida, ilmiy-ijodiy natijalarini tijoratlashtirish va qo'shimcha ish joylarini topishiga ko'maklashish;
25. Xalqaro hamkorlikni tashkil etishda internet orqali guruhning ish faoliyati va yutuqlarini targ'ib etuvchi Web-sahifa ochib, muntazam ravishda ilmiy-ijodiy faoliyatlarini yoritib borish;
26. To'garakda ijodiy, innovatsion muhitni yaratish va ushbu jarayonda faol qatnashish.

5-bob. TO'GARAKNING HUQUQLARI

27. Universitet hududida hamda turdosh turdosh kafedralarda bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalarida qatnashish, turli ilmiy-amaliy anjumanlar, ko'rgazmalar, uchrashuvlar, tadbirlar majmuasini uyushtirish va o'tkazishda ko'maklashish;
28. Qonunda belgilangan tartibda reklama ishlarini amalga oshirish va o'z faoliyatida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

29. Mamlakat OTMlari, ilmiy markazlar, zamonaviy korxonalar va tashkilotlar hamda jamg'armalari bilan ilmiy-ijodiy hamkorliklar o'rnatish;

30. Talabalarni to'garak ishlariga keng jalb qilish va qiziqtirish maqsadida fakultet Ilmiy Kengashi qarori asosida to'garakda qatnashuvchi talabalar orasida tanlovlar tashkil qilish;

31. Kafedralar qoshida mutaxassislik fanlaridan kelib chiqib, kurslar, maktab, to'garak nomi keltirilishi va nomlanishi mumkin;

32. To'garak ma'sul va javobgar kafedra mudiri, to'garak rahbari, fakultet dekani hisoblanadi;

33. To'garak rahbariga va talabalar bilan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan professor-o'qituvchilarga baholash mezoniga muvofiq belgilangan ballar bilan rag'batlantirilishi mumkin;

34. O'quv yili yakunlarida universitet hamda universitet kasaba uyushmasi qo'mitasi hisobidan eng faol to'garak rahbarlari moddiy rag'batlantirilishi mumkin.

6-bob. TO'GARAKKA A'ZOLIK

35. Mazkur Nizom qoida va talablari hamda mutaxassislik to'garagining maqsad va vazifalarini ma'qullagan, millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, ilmiy-ijodiy faoliyatiga o'z bilimi va qobiliyati bilan qiziqqan bakalavriat va magistratura talabalari to'garakka a'zo bo'lishlari mumkin.

36. To'garak faoliyatiga doir barcha tashkiliy-amaliy masalalarning hal qilinishida teng huquqlilik asosida ishtirok etish

37. To'garak turini tanlash va qatnashish talabalar uchun ixtiyoriy bo'lib, uning to'garakka ishtirok etish haqidagi og'zaki bildirishi yetarlidir.

38. To'garakning Nizomiga rioya qilish hamda uning maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish;

39. Nizomga to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritish borasida takliflar va tavsiyalar bilan chiqish;

40. Universitet o'quv-texnologik, laboratoriya jihozlari, axborot resurs markazi jamg'armasidan va jihozlaridan foydalanishi;

41. To'garaklarni tashkil etish va rahbarlik qilish

7-bob TO'GARAK A'ZOLARINING BURCHLARI

42. Talabalarining jamoat ishlarida ishtirok etishi va dam olishlarini e'tiborga olinib, to'garak rahbari taqdimnomasiga muvofiq tuzilgan jadval asosida to'garakda qatnashish va to'garak mashg'ulotlarini sababsiz qoldirmasligi;

43. To'garak mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan barcha o'quv qurollarini olib kelish va xavfsizlik texnikasi hamda sanitar-gigiyenik me'yorlariga rioya qilish;

44. To'garak tajribali professor-o'qituvchilar va kasb ta'lim ustalari rahbarlik qiladi va ilmiy ishlar bo'yicha prorektor nazorati ostida fakultet dekanati tomonidan boshqariladi hamda fakultet Ilmiy Kengashiga muntazam hisobot beradi.

45. 1-semestr yakunida hisobotlar taqdim etiladi

46. 2-semestr yakunida hisobotlar taqdim etiladi.

8-bob. TO'GARAK RAHBARINING VAKOLATLARI:

45. Ilmiy to'garak Nizomiga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritish tashabbusi bilan chiqadi;

46. To'garak a'zolarining sonini (ishtirokchilar soni 5 nafardan kam bo'lmasligi kerak) belgilaydi;

47. To'garak vakolatlarini va uning asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi;

48. To'garak a'zolari va yo'nalishlar bo'yicha to'garak a'zolari tomonidan taqdim etilgan dasturiy hujjat, loyiha va konsepsiyalarni muhokama qiladi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi;

49. To'garak faoliyatini takomillashtirishga doir turli taklif va tashabbuslar bilan chiqadi.

50. To'garak rahbarini ish joyi lazozimi o'zgarganda uning o'rniga kafedra yig'ilishi bilan boshqa xodimga vazifa yuklatiladi.

9-bob. TO'GARAK RAHBARIDA BO'LISHI KERAK BO'LGAN ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR:

Ilmiy to'garak Nizomi;

Fakultet Ilmiy Kengash tomonidan tasdiqlangan to'garakning yillik ish rejasi;

Ishtirokchilarning davomatini qayd qilish jurnali;

To'garak o'quv reja jadvali;

To'garak ishtirokchilarning ro'yxati;

To'garak faoliyati bo'yicha hisobot.

10-bob. TO'GARAKNING FAOLIYATI

51. To'garak yig'ilishlarini o'tkazish uning xususiyatidan kelib chiqib, belgilanadi.

52. Kafedralar qoshida faoliyat yuritayotgan to'garaklar uchun ma'sul to'garak rahbari hisoblanadi;

53. To'garak faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish, nazorat qilish kafedra mudiri hamda fakultet dekani zimmasiga yuklatiladi.

54. Fakultet dekani hamda kafedra mudiri to'garak uchun zarur bo'lgan jixozlar bilan ta'minlashda ko'maklashadi;

55. To'garak uchun zarur bo'lgan jixozlar (stol, stul, shkaf, kompyuter jamlanmasi va boshqalar);

56. To'garak nomi aks ettirilgan (tablichka), xonaga kirish qismida talabalarga ko'rinadigan joyda aks ettirilishi lozim;

57. To'garak Nizomi, to'garak rahbari, a'zolari, faoliyati, ish rejasi, o'quv rejasi to'g'risida ma'lumot beruvchi targ'ibot vositalari (banner, doska va boshqalar);

11-bob. TO'GARAK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI

58. To'garak faoliyatini tashkil qilish va uni yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar o'rnatilgan tartibda universitetning byudjetdan tashqari topilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

59. To'garak faoliyati uchun zarur moliyaviy mablag'lar universitet tomonidan, quyidagi moddiy mablag'lar asosida shakllantiriladi:

Ta'lim xizmat (o'quv kurslari, til o'rgatish kurslari va boshqa) lari va treninglar;

Ta'lim muassasalarida shartnoma asosida ma'ruzalar o'tkazish;

Shartnoma asosida o'quv-uslubiy ishlanmalar yaratish;

Homiylik mablag'lari;

Amaldagi qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar.

60. «*Eng na'munali to'garak*» nominatsiyasi bo'yicha KPI baholash mezonlarida yuqori natijalarga erishgan to'garak rahbaridan 3 nafar professor-o'qituvchilar universitetning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib bir oylik maoshlari miqdorida bir martalik rag'batlantirilishi hamda universitet kasaba uyushmasi qo'mitasi mablag'lari hisobidan esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishlari mumkin.

61. Shakllantirilgan moliyaviy mablag'lar universitet hisob raqamiga tushiriladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasi asosida ishlatiladi.

12-bob. TO'GARAK FAOLIYATINI TUGATISH TARTIBI


62. To'garaklar faoliyati institut kengash qarori bilan tugatiladi.

Biologiya va qishloq xo'jalik
mahsulotlari texnologiyalari
kafedrasi mudiri, dotsent



M.K.Hamroyeva

To'garak rahbari



I.I.Mamatkulov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDOGOGIKA INSTITUTI

“KELISHILDI”

DTPI doktorantura va iqtidorli talabalarni
ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish sektori
boshlig'i

“09” 09 2024 y.

“TASDIQLAYMAN”

Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

dekani B.Iraliev

“09” 09 2024 y.



“ANIQ VA TABIIY FANLAR” FAKULTETI “BILOGOIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI
TEKNOLOGIYALARI” KAFEDRASI QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASH VA DASTLABKI
ISHLASH TEKNOLOGIYASI (MAHSULOTLAR TURLARI BO'YICHA) YO'NALISHI
“YOSH TEKNOLOG” ILMIY TO'GARAGINING IQTIDORLI TALABALARI BILAN
ISHLASH BO'YICHA 2024-2025 O'QUV YILI UCHUN
ISH REJASI

“Bilogoia va qishloq xo'jaligi mahsulotlari texnologiyalari”
kafedrasi

mudiri M.K.Hamroyeva

“09” 09 2024 y.

“Bilogoia va qishloq xo'jaligi mahsulotlari
texnologiyalari” kafedrasi

“Yosh texnolog” iqtidorli talabalar ilmiy to'garagi

rahbari I.I.Mamatkulov

“09” 09 2024 y.

Denov-2024

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Aniq va tabiiy fanlar” fakulteti “Bilogoiya va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari texnologiyalari” kafedrası Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo‘yicha) yo‘nalishining iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning ilmiy va yaratuvchanlik qobiliyatlarini o‘rganish bo‘yicha №4- sonli navbatdan tashqari yig‘ilish

BAYONNOMASIDAN KO‘CHIRMA

2024 yil 2 ноябрь
Majlis raisi
Kotib

DTPI
M.K.Hamroyeva
I.I.Mamatkulov

Qatnashdilar: Kafedra mudiri Hamroyeva Marg‘uba Kamilovna, professorlar: Raviprakash Deni Govindrao, dotsentlar: Xalmuratov Mingboy Amirovich, Safarova Farzona Rajabovna, M.I.J.Ro‘zieva, Safarova Farzona Rajabovna, Sodiqova Dilfuza G‘afforovna, Xushvaqtova Xusnobod Soliyevna, I.I.Mamatkulov o‘qituvchilar: Mardonov Sherzod Umaraliyevich, Mamurova Zuxra Muxamadova, Ergashev Azamat Azimovich, Boboxonov Muzaffar Ziyodullayevich, Xayitova O‘g‘iloy Ziyadullayevna, Xakimova Sevara Xamzayevna

KUN TARTIBI

1.Kafedrada tashkil etilgan iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning ilmiy va yaratuvchanlik qobiliyatlarini o‘rganish quyidagilardan iborat:

- Ilmiy-tadqiqotlar natijalari(start-up loyiha) bo‘yicha taqdimot
- Har xil masalalar

1. So‘zga chiqdi: Kafedra mudiri M.Hamroyeva joriy yilning 09 09 2024 y. 1 - buyrug‘i ijrosini bajarish uchun “Aniq va tabiiy fanlar” fakulteti “Bilogoiya va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasidagi mutaxassislik fanlari bo‘yicha iqtidorli, qobiliyatli va iste‘dodli talabalarni aniqlash, ulardagi ilmiy - ijodiy qobiliyatlarini ruyobga chiqarishda ko‘maklashish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni har tamonlama qo‘llab quvvatlash maqsadida institutda barcha kunduzgi bo‘lim talabalariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning zamonaviy texnologiyasi to‘g‘risida gapirdi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNAVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDOGOGIKA INSTITUTI
ANIQ VA TABIIY FANLAR FAKULTETI
"BILOGIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI
TEXNOLOGIYALARI" KAFEDRASI

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi
(mahsulotlar turlari bo'yicha) yo'nalishi

"Yosh texnolog" to'garaging

2024-2025 o'quv yili uchun

TO'GARAK JURNALI



Denov-2024 yil

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDOGOGIKA
INSTITUTI

“YOSH TEXNOLOG” IQTIDORLI TALABALAR
KLUBI



DENAU INSITUTE OF ENTREPRENEURSHIP AND
PEDAGOGY
SCIENTIFIC SOCIETY OF STUDENTS

190507, Surxondaryo viloyati Denov tumani Sh.Rashidov
ko'chasi, 360-uy

TEL.
fax:76-41-39-027
www.agrar.uz
iste'dod 2024-2025
dtpi@exat.uz

190507, house 360, Sh. Rashidov street, Denov district,
Surkhandarya region

TO'GARAK NOMI “YOSH TEXNOLOG” BOSHLANGAN SANA 09.09.2024 MAS'UL I.I.MAMATKULOV
TO'GARAKKA QATNASHUVCHILAR RO'YHATI

	F.I.SH	Guruhi	Sana																						
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23
1	Abrayeva Hilola Ravshanovna	14-Q/i-2022-gurux																							
2	Ergashova Shohsanam Shavkat qizi	14-Q/i-2022-gurux																							
3	Inomov Xislatjon Odiljon o'g'li	14-Q/i-2022-gurux																							
4	Jovliyev Asad Furqar o'g'li	14-Q/i-2022-gurux																							
5	Nazarova Dilshoda Abdiraim qizi	14-Q/i-2022-gurux																							
6	Norchayeva Ruhsora Farxodovna	14-Q/i-2022-gurux																							
7	Payzullayeva Shoxsanam Asqar qizi	14-Q/i-2022-gurux																							
8	Pirmaxamatova Maloxat XXX	14-Q/i-2022-gurux																							
9	Suyundikova Yulduz Usmon qizi	14-Q/i-2022-gurux																							
10	Toshtemirov	14-Q/i-2022-gurux																							